

JINOYAT HUQUQIDA IJTIMOY XAVFLILIK

Mayor Berdiyev Zoxid Zokirovich

Manaviy-marifiy ishlar va kadrlar bilan taminlash departamenti,
murojaatlarni korib chiqish bolimi katta inspektori

Annatsiya

Mazkur maqola, Jinoyat huquqida ijtimoiy xavflilik haqida bo'lib umumiy tushunchlar holatlar qonun belgilanga tartibda ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy munosabatlarning muhimligi, moddiy, jismoniy, ma'naviy, tashkiliy-boshqaruv.

“Jinoyat huquqida ijtimoiy xavflilik bu – qonun bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishning real xavfini o‘zida aks ettiruvchi hamda salbiy belgilar va elementlar yig‘indisini ifodalovchi jinoyat (chilik)ning ma’lum bir obyektiv holatidir»[4].

Ijtimoiy munosabatlarga real zarar yetkazish xavfi bo‘lgan jinoyatning sodir etish fakti qilmishning ijtimoiy xavfliligini belgilab beradi. Ijtimoiy xavflilik jinoyatning qonun chiqaruvchi va huquqni qo‘llovchi organlar erki bilan bog‘liq bo‘lmagan obyektiv belgisidir. Lekin bu toifaning qonun chiqaruvchi va huquqni qo‘llovchi organlar uchun ahamiyati shundaki, bu qanday ijtimoiy xavfli qilmishning jinoyat ekanligi belgilanadi. Ijtimoiy xavflilik quyidagilarga ko‘ra belgilanadi:

- a) jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarning muhimligi;
- b) yetkazilgan zararining hajmi, xususiyati (xususiyati) va darajasi;
- c) ijtimoiy xavfli qilmishning xususiyatlari;
- d) ayrim holatlarda – jinoyat sodir etgan subyektning xusu-siyatlari.[5]

Ijtimoiy xavfli qilmish tushunchasi harakat yoki harakatsizlik bilan birga qilmish natijasida yuzaga kelgan zararli oqibatni ham qamrab oladi. Shuning uchun Jinoyat kodeksi Maxsus qismiga kiritilgan jinoyatlar ijtimoiy xavfli hisoblanadi. Ularning ijtimoiy xavfliligi qonun bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishi mumkinligi bilan ifodalanadi. Ijtimoiy munosabatlar iqtisodiy, g‘oyaviy, shaxsga tegishli bo‘lishi mumkin. Zarar esa moddiy, ruhiy (ma’naviy) va jismoniy bo‘lishi mumkin. Qilmishning ijtimoiy xavfliligi bir qancha o‘zgaruvchan sharoitlar, ya’ni jinoyat sodir etilgan vaqt, joy, yetkazilgan zararining miqdori, aybning darajasi va shakli, shunday turdagi jinoyatlarning qay darajada tarqalganligi, aholi huquqiy ongining darajasi kabi holatlar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Shuningdek, ijtimoiy xavflilik ko‘p tomonlamalik xususiyat-ma’nosiga ega bo‘lib, miqdor va sifat ko‘rsatkichlarga asosan aniq-lanadigan ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyatini ham o‘z ichiga oladi.

Jinoyat kodeksi 54-moddasida sud jazo tayinlashda sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, qilmishning sababini, yetkazilgan zararining xususiyati va miqdorini, aybdorning shaxsini hamda jazoni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlarni hisobga oladi, deb belgilab qo‘yilgan. Demak, ijtimoiy xavflilik xususiyati – jinoyatning sifat jihatini ifodalasa, ijtimoiy xavflilik darajasi – jinoyatning miqdor ko‘rsat-kichini aks ettiradi.

Ijtimoiy xavflilik xususiyati – jinoyatning xavflilik (zarar yetkazish) holati bo‘lib, tajovo‘z obyektining tarkibi, ya‘ni aniq ijtimoiy munosabatga yetkazilgan (moddiy, jismoniy, ma‘naviy, tashkiliy-boshqaruv bilan bog‘liq) zararining tarkibi, tajovo‘z qilish usuli, xususiyatlari (zo‘rlilik ishlatib yoki ishlatmasdan), aybning shakllari (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida), jinoyatning motiv va maqsadi (shaxsiy, g‘arazli niyatlarda) bilan bog‘liq bo‘ladi.

Ijtimoiy xavflilik darajasi – qilmish xavfliligining siyosiy ifodasi bo‘lib, zararining hajmi (moddiy zarar, ko‘p miqdorda zarar yetkazish, shaxsning badaniga og‘ir va o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish), aybning xususiyatlari (oldindan o‘ylab qo‘yilgan, to‘satdan vujudga kelgan), jinoyat motivi va maqsadining o‘zgarishi, shuningdek, jinoyat sodir etilgan joy, vaqt, vaziyati bilan bog‘liq jinoyatning xavflilik darajasi bilan belgilanadi.

Jinoyatning moddiy belgisi hisoblangan ijtimoiy xavflilik yuqoridagi xususiyatlardan tashqari, “ijtimoiy xavf tug‘dirmaydigan, ya‘ni shaxs, jamiyat va davlatga zarar yetkazmaydi va zarar yetkazish xavfini keltirib chiqarmaydigan kam ahamiyatli qilmishlar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat belgilariga formal jihatdan ega bo‘lsa ham, jinoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) deb hisoblanmaydi”, - degan qoidani ham o‘z ichiga oladi. Qilmishning kam ahamiyatligi jinoyat huquqida quyidagi ikki belgi:

birinchidan, Jinoyat kodeksida jinoyat belgilarining formal jihatdan mavjudligi (formal belgi)da namoyon bo‘ladi;

ikkinchidan, ijtimoiy xavfli emasligi, ya‘ni shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazmasligi yoki zarar yetkazish xavfini keltirib chiqarmasligi (moddiy belgi).

“Qilmishning kam ahamiyatligi” tushunchasini aniqlashning ahamiyati shundaki, qilmishning qonunda ko‘rsatilgan jinoyatlar bilan formal jihatdan mos kelishining o‘zi yetarli bo‘lmasdan, qilmishni jinoyat deb topish uchun bundan tashqari qilmish natijasida zarar yetkazilganligi va zarar yetkazilishi xavfi mavjudligini ham aniqlanishi lozim.

Foydaniilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ветров Н.И. Уголовное право. Общая часть: Учебник для вузов. – М.: ЮНИТИ – ДАНА, Закон и право, 1999. – С. 57.
2. Уголовное право Российской Федерации. Общая часть: Учебник / Под. Ред. Б.В. Здравомыслова – Изд. 2-е, перераб. и доп. – М.: Юристъ, 1999. – С. 54-57.
3. Уголовное право. Общая часть. Учебник / Под. ред. Н.И. Ветрова, Ю.И. Ляпунова. - М.: Новый Юрист, КноРус, 1997. – С. 134,136.

<https://conferencea.org>

4. Уголовное право. Общая часть. Учебник / Под. ред. Н.И. Ветрова, Ю.И. Ляпунова - М.: Новый Юрист, КноРус, 1997. – С. 136.

5. Ветров Н.И. Уголовное право. Общая часть: Учебник для вузов. – М.: ЮНИТИ – ДАНА, Закон и право, 1999. – С. 62.

